Boshlang'ich ta'limda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan interfaol pedagogik strategiyalarning didaktik imkoniyatlari	742
<i>Urazimbetova Aygul Aralbayevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik strategiyalarning nazariy-metodologik asoslari.....	748
<i>Axmedova Laylo Baxtiyor qizi</i>	
Talaba yoshlarini darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida sport musobaqalariga tayyorlashning pedagogik tahlili.....	755
<i>Zuxriddin Nasibovich Boboshev</i>	
Voleybol o'yini taktikasiga o'rgatish	759
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Целеполагание личности в контексте нейрокогнитивных и интуитивных процессов	762
<i>Никишина Изабелла Алиевна</i>	
Matematika fanini o'qitishda o'yin metodlarini tatbiq etish.....	770
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Cross-Cultural Foundations of English Education: Proverbs from Uzbekistan and Afghanistan.....	775
<i>Samadi Nooria</i>	



Bo'lajak surdopedagoglarni kar bolalar nutqini rivojlantirishga tayyorlashda innovatsion metodlar integratsiyasi	779
Teshaboyeva Feruza Raximovna	
The Role of Modern Technologies in Learning the English Language	783
Ergasheva Mehriyona	
Использование различных методов контроля в процессе преподавания русского языка в группах с нерусским языком обучения	787
Заболотина А. А.	
Descriptors Differentiated Instruction Based on Linguistic Competence and CEFR Levels	791
Abdullayeva Charos Farkhodovna	
Эффективность использования искусственного интеллекта при формировании коммуникативных навыков на английском языке	796
Абидова М. И., Абидова Д. М.	
Haqiqat yog'dusi bilan yo'g'rilgan ijod	800
Saodat Eshpulatova	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida pedagogik intellektni baholash indikatorlari	804
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Mediasavodxonlik muammosining tabiati va mazmun-mohiyati	808
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Nutqiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish usul va yo'llari	811
Shoaxmedova Surayyo Komilovna	
Pedagogik uslublarning o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish bosqichlaridagi xususiyatlari	816
Turayeva Dilafruz Rustamboevna	
Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarida shaxsiy qadriyatlarning kasbiy karyerani rejalashtirishdagi ijtimoiy-psixologik ahamiyati	822
Xolyigitova Nasiba Xabibullayevna	

PEDAGOGIK USLUBLARNING O'QITUVCHILARNING KASBIY RIVOJLANISH BOSQICHLARIDAGI XUSUSIYATLARI

Turayeva Dilafruz Rustamboevna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchilarning pedagogik uslublari ish tajribasi kesimida empirik tahlil qilingan. Tadqiqotda N. Eltermanning “Maktabdagi vaziyat” metodikasi, Kruskal-Uollis H mezonı va korrelyatsion tahlildan foydalanildi. Natijalar ish tajribasi ortishi bilan pedagogik uslublarning mazmuni va ustuvorligi o'zgarishini ko'rsatdi. Shuningdek, pedagogik uslublarda o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlanib, ularning kasbiy rivojlanish va o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini takomillashtirishdagi amaliy ahamiyati asoslandi.

Kalit so'zlar: pedagogik uslub, o'qituvchi, ish tajribasi, pedagogik faoliyat, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi, pedagogik kompetensiya, motivatsion uslublarda, demotivatsion uslublarda, Kruskal-Uollis mezonı, korrelyatsion tahlil.

Abstract: This article presents an empirical analysis of teachers' pedagogical styles according to their professional experience. The study employed N. Eltermann's School Situations methodology, the Kruskal-Wallis H test, and correlation analysis. The findings indicate that pedagogical styles change with increasing teaching experience. Significant relationships among pedagogical styles were identified, confirming their practical importance for teachers' professional development and improving teacher-student interaction.

Key words: pedagogical style, teacher, teaching experience, pedagogical activity, teacher-student interaction, pedagogical competence, motivational styles, demotivational styles, Kruskal-Wallis test, correlation analysis.

Аннотация: В статье представлен эмпирический анализ педагогических стилей учителей в зависимости от профессионального стажа. В исследовании использованы методика Н. Эльтермана “Ситуация в школе”, критерий Краскала-Уоллиса и корреляционный анализ. Полученные результаты показали, что с увеличением педагогического стажа изменяются содержание и доминирующие особенности педагогических стилей. Выявлены взаимосвязи между педагогическими стилями и обосновано их практическое значение для профессионального развития педагогов и совершенствования взаимодействия учителя с учащимися.

Ключевые слова: педагогический стиль, учитель, педагогический стаж, педагогическая деятельность, взаимодействие учителя и учащегося, педагогическая компетентность, мотивационные стили, демотивационные стили, критерий Краскала-Уоллиса, корреляционный анализ.

KIRISH

Pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri o'qituvchining kasbiy tajribasi hisoblanadi. Pedagogik psixologiya va ta'lim menejmentiga oid tadqiqotlarda o'qituvchining ish staji uning pedagogik qaror qabul qilish uslubi, o'quvchilar bilan muloqot strategiyasi, sinfni boshqarish ko'nikmalari hamda ta'lim jarayonini tashkil etish xususiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shu bilan birga, pedagogik tajriba ortishi bilan barcha uslubiy yondashuvlar bir xil yo'nalishda rivojlanmaydi.

Ayrim pedagoglarda shaxsga yo'naltirilgan demokratik yondashuv kuchaysa, boshqalarida nazorat va direktiv boshqaruv elementlari ustunlashishi mumkin. Mazkur holat pedagogik faoliyatning turli bosqichlarida qanday uslubiy transformatsiyalar yuz berishini empirik jihatdan aniqlash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli tadqiqotning ushbu bosqichida pedagoglarning pedagogik vaziyatlarga nisbatan uslubiy yondashuvlari ish tajribasi kesimida tahlil qilindi hamda kasbiy rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq statistik farqlar aniqlandi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qituvchilarning pedagogik faoliyat uslublari, o'quvchi bilan o'zaro munosabatlari hamda kasbiy tajriba-ning pedagogik qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Avvalo, K. Levin, R. Lippitt va R. White (1939) pedagogik boshqaruv uslublarini demokratik, avtoritar va liberal turlarga ajratib, o'qituvchi uslubi o'quvchilarning motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi hamda ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5]. Mazkur tadqiqot pedagogik uslublarni ilmiy tasniflash bo'yicha fundamental ishlardan biri hisoblanadi.

Keyinchalik E. L. Deci va R. M. Ryan (1985; 2000) tomonidan ishlab chiqilgan O'zini o'zi belgilash nazariyasida (Self-Determination Theory) [1] o'quvchilarning ichki motivatsiyasini shakllantirishda avtonomiyani qo'llab-quvvatlovchi pedagogik yondashuvning ustunligi isbotlangan [2]. Mualliflar o'quvchilarning mustaqilligini rag'batlantiruvchi pedagogik muhit ta'lim sifati va o'quv natijalarini sezilarli darajada yaxshilashini ta'kidlaydilar.

Pedagogik faoliyatni psixologik nuqtai nazardan o'rgangan A. K. Markova (1996) o'qituvchining kasbiy kompetentligini pedagogik mahorat, kommunikativ madaniyat, refleksiya va individual uslubning o'zaro uyg'unligi sifatida tavsiflagan [7]. Uning fikricha, kasbiy tajriba ortishi bilan pedagogik faoliyat uslubi ham takomillashib boradi.

N. V. Kuzmina (1990) pedagogik faoliyat samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahorati, kommunikativ kompetensiyasi hamda pedagogik vaziyatlarni boshqarish qobiliyati bilan belgilanishini asoslagan [6]. Muallif kasbiy tajriba pedagogik faoliyat sifatining muhim determinantlaridan biri ekanligini ko'rsatgan.

Pedagogik faoliyatning psixologik mexanizmlarini tadqiq etgan L. M. Mitina (1998) o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqichda pedagogik uslublar va o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarining mazmuni o'zgarib borishini qayd etgan [8].

Zamonaviy tadqiqotlarda J. Hattie (2009; 2023) o'qituvchining pedagogik yondashuvi, konstruktiv qayta aloqa, o'quvchilarni faol jalb qilish hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usullarini ta'lim sifati va akademik natijalarga eng kuchli ta'sir etuvchi omillar qatoriga kiritgan [3], [4].

O'qituvchilarning pedagogik uslublarini baholash bo'yicha N. Eltermanning "School Situations" ("Maktabdagi vaziyat") metodikasi pedagoglarning avtonomiyani qo'llab-quvvatlovchi, strukturaviy, nazoratga asoslangan hamda tartibsiz pedagogik uslublarini kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur metodika bugungi kunda pedagogik psixologiyada keng qo'llanilib, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini empirik tahlil qilishning ishonchli vositalaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi ilmiy ishlarda pedagogik uslublar, motivatsiya, kasbiy kompetentlik hamda o'qituvchi-o'quvchi hamkorligining turli jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, pedagogik uslublarning aynan o'qituvchilarning ish tajribasi bosqichlari bilan bog'liq transformatsiyasi hamda motivatsion va demotivatsion uslublarning statistik jihatdan qiyosiy tahlili yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, pedagogik uslublarning kasbiy rivojlanish bosqichlari bilan bog'liqligini empirik va statistik asosda yoritishi bilan avvalgi tadqiqotlardan farqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda pedagogik uslublarning o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish bosqichlariga bog'liq xususiyatlarini aniqlash maqsadida empirik, qiyosiy va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Pedagogik uslublarni baholashda N. Eltermanning "Maktabdagi vaziyat" metodikasi qo'llanildi. Respondentlar ish stajiga ko'ra 1-5 yil, 6-11 yil va 11 yildan ortiq tajribaga ega bo'lgan guruhlar ajratildi. Guruhlar o'rtasidagi farqlar Kruskal-Uollis H mezonini yordamida, pedagogik uslublar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar esa korrelyatsion tahlil asosida aniqlandi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p \leq 0,05$ va $p \leq 0,01$ mezonlari asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagoglarning pedagogik vaziyatlarga nisbatan uslubiy yondashuvlarini ish tajribasi bo'yicha taqqoslash maqsadida N. Eltermanning "Maktabdagi vaziyat" metodikasi qo'llanildi. Respondentlar ish stajiga ko'ra uch guruhga (1-5 yil, 6-11 yil va 11 yildan ortiq) ajratildi. Guruhlar o'rtasidagi farqlar parametrik bo'lmagan Kruskal-Uollis H mezonini yordamida tekshirildi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p \leq 0,05$ va $p \leq 0,01$ mezonlari asosida baholandi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari ish tajribasi kesimida ham tahlil qilindi. O'qituvchilarning sinfdagi pedagogik yondashuvlari ularning kasbiy tajribasi davomida sezilarli o'zgarishga uchrashi kuzatiladi. Psixologik jihatdan pedagogik ish tajribasi o'qituvchining o'ziga ishonchi, sinf bilan munosabatlari va boshqaruv uslublariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. 3.6-jadvalda N. Eltermanning "Maktabdagi vaziyat" metodikasi bo'yicha pedagoglarning ish tajribasi darajasiga qarab maktab vaziyatlariga nisbatan qo'llaydigan uslubiy yondashuvlaridagi farqlar taqdim etiladi. Uch guruh (1-5 yil, 6-11 yil, 11 yildan ortiq tajriba) o'rtasidagi farqlar Kruskal-Uollis H testi yordamida



tekshirildi. Natijada 11 ta uslubdan 9 tasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlandi ($p \leq 0,05$ yoki $p \leq 0,01$). Faqat "Tartibsiz" ($p = 0,122$) va "Mas'uliyatdan chekinuvchi" ($p = 0,098$) uslublarida farqlar ahamiyatsiz ekanligini ko'rish mumkin. Demak, o'qituvchilarning pedagogik uslubi ish tajribasiga sezilarli darajada bog'liq. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda faol, konstruktiv va boshqaruvga yo'naltirilgan uslublar ish tajribasining muayyan bosqichlarida farqli namoyon bo'lishi aniqlandi.

1-jadval: N. Eltermanning "Maktabdagi vaziyat" metodikasi bo'yicha pedagoglarning ish tajribasiga ko'ra olingan natijalar (Kruskal-Uollis H mezoni, $n = 483$)

Pedagogik vaziyatlarga nisbatan uslubiy yondashuvi	O'rtacha rang			H	p
	1-5 yil ish tajribasi	6-11 yil ish tajribasi	11+ yil ish tajribasi		
Avtonomiyani qo'llab-quvvatlovchi	215,6	268,4	240,2	4,21	0,015*
Jalb qiluvchi	225,3	272,8	210,4	6,05	0,003**
Tushuntiruvchi	218,5	265,3	245,7	3,18	0,041*
Nazoratga asoslangan	192,4	238,7	285,1	7,30	0,001**
Talabchan	198,2	242,5	278,6	5,45	0,004**
Hukmron	185,7	235,4	280,3	5,90	0,003**
Moslashuvchan	205,1	275,6	238,4	4,88	0,008**
Yo'naltiruvchi	212,3	278,9	242,1	6,20	0,002**
Tartibsiz	258,4	235,2	224,1	2,10	0,122
Mas'uliyatdan chekinuvchi	255,1	232,8	218,5	2,50	0,098*
Kuzatuvchi	252,6	234,4	215,8	3,40	0,034*

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Olingan natijalar pedagogik faoliyatning rivojlanishi bosqichma-bosqich kechishini ko'rsatadi. Kasbiy faoliyatning dastlabki bosqichida pedagoglar ko'proq ehtiyotkor va kuzatuvchi pozitsiyani egallasa, o'rta bosqichda shaxsga yo'naltirilgan hamkorlik uslublari eng yuqori darajada rivojlanadi. Uzoq muddatli kasbiy faoliyat davomida esa boshqaruv, nazorat va talabchanlik elementlari nisbatan kuchayadi. Mazkur tendensiya pedagogik tajribaning nafaqat metodik, balki psixologik rivojlanish jarayoniga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kasbiy faoliyatning dastlabki bosqichida (1-5 yil ish stajiga ega o'qituvchilar) pedagogik munosabat uslublarining o'ziga xos, hali barqarorlashmagan shakllari kuzatiladi. Kruskal-Uollis H mezoni asosida aniqlangan o'rtacha ranglar tahlili mazkur guruhda tartibsiz (o'rtacha rang = 258,4), mas'uliyatdan chekinuvchi (o'rtacha rang = 255,1) hamda kuzatuvchi (o'rtacha rang = 252,6) uslublarning boshqa tajriba guruhlariga nisbatan yuqori darajada namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Ushbu tendensiya statistik jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, ayniqsa, kuzatuvchi uslub bo'yicha sezilarli farq mavjudligi qayd etildi ($H = 3,40$; $p \leq 0,05$). Aytib o'tish joizki, "Kuzatuvchi" uslubi ikki tomonlama xarakterga ega. Ijobiy jihatdan u o'qituvchining o'quvchilarni kuzatish, ularning mustaqil rivojlanishiga imkon berish va haddan tashqari aralashmaslik qobiliyatini bildiradi. Boshlang'ich tajribali pedagoglar (1-5 yil) orasida bu uslubning yuqori ko'rsatkichi (252,6) tabiiy holda namoyon bo'ladi. Salbiy jihatdan esa u o'qituvchining passivligi, mas'uliyatni yetarli darajada o'z zimmasiga olmasligi va jarayonni yetaklashda zaifligini ko'rsatadi. Tajriba oshishi bilan bu uslubning ko'rsatkichi pasayishi (11 yil va undan yuqori tajribaga ega bo'lganlarda 215,8) pedagoglarning faolroq yondashuvga o'tishini bildiradi. Natijada, "Kuzatuvchi" uslubi o'qituvchining tajriba bosqichiga qarab turli ma'nolarda baholanadi.

Psixologik nuqtai nazardan, faoliyatning dastlabki bosqichida o'qituvchilar o'zlarining kasbiy rollarini anglash, sinf bilan samarali muloqot o'rnatish va murakkab pedagogik vaziyatlarni boshqarish bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lmaydi. Natijada, ular ko'pincha noaniqlik sharoitida faol qaror qabul qilishdan ko'ra, vaziyatni kuzatish, aralashuvni kechiktirish yoki passiv strategiyalarni tanlashga moyil bo'ladilar. Bu holat, ayniqsa, kutilmagan vaziyatlar, intizomiy muammolar yoki kommunikativ qiyinchiliklar yuzaga kelganda yaqqol namoyon bo'ladi. Pedagogik jihatdan mazkur tendensiya yosh o'qituvchilarning dars jarayonida yetarli darajada tashabbus ko'rsatmasligi, vaziyatni faol boshqarish o'rniga uning tabiiy rivojlanishini kutishi bilan izohlanadi. "Kuzatuvchi" va "kutuvchi" uslublarning ustunligi o'qituvchining professional ishonchi hali shakllanmaganligi, o'z pedagogik qarorlarining to'g'riligiga nisbatan ichki shubhalar mavjudligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, mas'uliyatdan chekinuvchi uslubning yuqoriligi ayrim hollarda pedagogik javobgarlikni to'liq o'z zimmasiga olishdan qochish yoki murakkab vaziyatlarda faol pozitsiyani egallamaslik tendensiyasini aks ettiradi.



Mazkur natijalar kasbiy adaptatsiya davrida o'qituvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash zarurligini asoslaydi. Xususan, yosh pedagoglarda refleksiya, o'z-o'zini boshqarish, kommunikativ kompetensiya va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mentorlik tizimini joriy etish, tajribali o'qituvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish va amaliy treninglar orqali faol pedagogik uslublarni shakllantirish ushbu bosqichdagi qiyinchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, 1-5 yil ish stajiga ega o'qituvchilarda passiv va tartibsiz pedagogik uslublarning nisbatan yuqori namoyon bo'lishi ularning kasbiy shakllanish jarayonining tabiiy bosqichi sifatida talqin etilishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu holatni tizimli ravishda bartaraf etish va faol, konstruktiv pedagogik yondashuvlarni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatning 6-11 yil ish stajini qamrab oluvchi bosqichi o'qituvchining pedagogik mahorati va individual uslubining shakllanishida nisbatan barqaror va samarali davr sifatida namoyon bo'ladi. Kruskal-Uollis H mezoni asosida olingan natijalar mazkur guruhda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik uslublarning boshqa tajriba guruhlariga nisbatan ustun ekanligini ko'rsatdi. Xususan, avtonomiyani qo'llab-quvvatlovchi uslub bo'yicha (o'rtacha rang = 268,4; $H = 4,21$; $p \leq 0,05$), jalb qiluvchi uslub bo'yicha (o'rtacha rang = 272,8; $H = 6,05$; $p \leq 0,01$), moslashuvchan uslub bo'yicha (o'rtacha rang = 275,6; $H = 4,88$; $p \leq 0,01$) hamda yo'naltiruvchi uslub bo'yicha (o'rtacha rang = 278,9; $H = 6,20$; $p \leq 0,01$) ko'rsatkichlar eng yuqori darajada qayd etildi. Mazkur natijalar pedagogik faoliyatning shaxsga yo'naltirilgan modeliga xos komponentlar aynan ushbu bosqichda eng optimal darajada shakllanishini tasdiqlaydi. Statistik jihatdan aniqlangan ushbu farqlar ($p \leq 0,05$; $p \leq 0,01$) o'qituvchining kasbiy rivojlanishining o'rta bosqichida nafaqat metodik, balki psixologik jihatdan ham yetuklikka erishishini ko'rsatadi.

Psixologik nuqtai nazardan, ushbu davrni o'qituvchining kasbiy adaptatsiya jarayonini muvaffaqiyatli yakunlab, o'z pedagogik imkoniyatlarini to'liq namoyon eta boshlagan bosqichi sifatida tavsiflash mumkin. Bu bosqichda pedagoglar o'z faoliyatiga nisbatan yuqori darajadagi ishonchga ega bo'lib, murakkab pedagogik vaziyatlarni boshqarishda barqaror strategiyalarni qo'llashga qodir bo'ladi. Ular o'quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini chuqur anglab, ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishga intiladilar.

Pedagogik jihatdan ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, 6-11 yil ish tajribasiga ega o'qituvchilar dars jarayonida faqat bilim uzatish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarning ichki motivatsiyasini shakllantirish, ularni faol ishtirok etishga jalb etish hamda mustaqil fikrlashga undashga alohida e'tibor qaratadilar. Xususan, jalb qiluvchi va moslashuvchan uslublarning yuqori darajada namoyon bo'lishi o'qituvchining o'quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va individual yondashuv asosida tashkil etish qobiliyatini aks ettiradi. Yo'naltiruvchi uslubning yuqori ko'rsatkichlari esa pedagogning o'quvchilarga konstruktiv yordam ko'rsatish, ularni rivojlantiruvchi faoliyatga jalb etish va o'quv jarayonini samarali boshqarish salohiyati bilan bog'liqdir.

Mazkur bosqichda avtonomiyani qo'llab-quvvatlash uslubining yuqoriligi o'qituvchilarning o'quvchilarga tanlov imkoniyatini berish, ularning mustaqilligini rivojlantirish va ta'lim jarayonida faol subyekt sifatida shakllanishiga sharoit yaratishga intilishini ko'rsatadi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillari - shaxsga yo'naltirilganlik, individuallashtirish va gumanistik yondashuv bilan to'liq mos keladi.

Tadqiqot natijalari 6-11 yil ish stajiga ega o'qituvchilar faoliyatida konstruktiv, qo'llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi pedagogik uslublarning ustunligi ularning kasbiy "optimal rivojlanish davri"da ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu davr o'qituvchining nafaqat metodik mahorati, balki psixologik yetukligi, kommunikativ kompetensiyasi va pedagogik refleksiya yuqori darajada shakllangan bosqich sifatida ta'riflanadi. Shu bois mazkur guruh pedagoglari ta'lim sifatini oshirishda yetakchi omil sifatida namoyon bo'lib, ilg'or pedagogik tajribani shakllantirish va uni ommalashtirishda muhim resurs hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatning 11 yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan bosqichi o'qituvchining pedagogik faoliyatida barqaror uslublarning shakllanishi va ularning qat'iylashuvi bilan tavsiflanadi. Kruskal-Uollis H mezoni asosida olingan natijalar ushbu guruhda hukmron va nazoratga yo'naltirilgan pedagogik uslublarning ustunligini ko'rsatdi. Xususan, nazoratga asoslangan uslub bo'yicha (o'rtacha rang = 285,1; $H = 7,30$; $p \leq 0,01$), talabchan uslub bo'yicha (o'rtacha rang = 278,6; $H = 5,45$; $p \leq 0,01$) hamda hukmron uslub bo'yicha (o'rtacha rang = 280,3; $H = 5,90$; $p \leq 0,01$) ko'rsatkichlar boshqa tajriba guruhlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Mazkur natijalar ko'p yillik pedagogik faoliyat davomida o'qituvchining kasbiy tajribasi ortib borishi bilan birga, faoliyatda sinovdan o'tgan, samarali deb topilgan direktiv strategiyalar ustuvorlik kasb etishini tasdiqlaydi. Statistik jihatdan aniqlangan farqlar ($p \leq 0,01$) tajribali o'qituvchilarda nazorat, talabchanlik va boshqaruvga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar tizimli ravishda shakllanganligini ko'rsatadi.

Psixologik nuqtai nazardan, uzoq muddatli kasbiy faoliyat o'qituvchida ma'lum darajada barqaror "kasbiy stereotiplar"ning shakllanishiga olib keladi. Bunday stereotiplar pedagogning faoliyatida sinovdan o'tgan, samarali deb baholangan xulq-atvor strategiyalarining takroran qo'llanishi bilan bog'liq. Natijada, tajribali o'qituvchilar

o'z bilim va tajribasiga tayangan holda pedagogik jarayonni qat'iy nazorat qilish, intizomni ta'minlash va natijaga yo'naltirilgan boshqaruvni ustuvor deb hisoblaydilar. Shuningdek, ularning kasbiy mas'uliyati yuqori darajada shakllangan bo'lib, bu omil ham o'quv jarayonida qat'iylilik va talabchanlikning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Pedagogik jihatdan ushbu holat tajribali o'qituvchilarning dars jarayonida aniq me'yorlar, qoidalar va talablar asosida ishlashga moyilligini ifodalaydi. Talabchan uslubning yuqori darajada namoyon bo'lishi o'quvchilardan intizom, mas'uliyat va belgilangan vazifalarni so'zsiz bajarishni talab qilish bilan xarakterlanadi. Hukmron uslub esa o'qituvchining o'z pedagogik pozitsiyasini ustuvor qo'yishi, o'quvchilarning xatti-harakatlarini qat'iy nazorat qilishi va qaror qabul qilish jarayonida yetakchi rolni egallashi bilan izohlanadi.

Mazkur yondashuvning ijobiy jihati shundaki, u ta'lim jarayonida tartib-intizomni ta'minlash, vaqtni samarali boshqarish va o'quv natijalariga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, murakkab yoki yuqori talab qo'yiladigan o'quv vaziyatlarida bunday uslub dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, nazoratga asoslangan va hukmron uslublarning haddan tashqari ustunligi o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tashabbus ko'rsatish va qaror qabul qilish ko'nikmalarining rivojlanishini ma'lum darajada cheklashi mumkin. Umuman olganda, 11 yildan ortiq ish stajiga ega o'qituvchilar faoliyatida direktiv va nazoratga yo'naltirilgan pedagogik uslublarning ustunligi ularning kasbiy tajribasi, mas'uliyati va faoliyatda shakllangan barqaror strategiyalari bilan izohlanadi. Shu bois, mazkur bosqichda pedagogik faoliyat samaradorligini yanada oshirish uchun nazorat va talabchanlikni o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, moslashuvchan va qo'llab-quvvatlovchi yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining umumlashtirilgan tahlili shuni ko'rsatadiki, ish tajribasi ortib borishi bilan o'qituvchilarning pedagogik vaziyatlarga nisbatan yondashuvlari sezilarli darajada transformatsiyaga uchraydi. Xususan, kasbiy rivojlanishning o'rta bosqichida (6-11 yil) o'qituvchilarda demokratik, shaxsga yo'naltirilgan va konstruktiv pedagogik uslublarning ustunligi kuzatiladi. Bu davrda avtonomiyani qo'llab-quvvatlash, jalb etish, yo'naltirish va moslashuvchanlik kabi uslublar yuqori darajada namoyon bo'lib, o'qituvchining o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Mazkur tendensiya pedagogning kasbiy yetukligi, refleksiv fikrlashi va emotsional-intellektual rivojlanishi bilan izohlanadi. O'qituvchi bu bosqichda ta'lim jarayonini nafaqat boshqaradi, balki uni o'quvchilarning ichki motivatsiyasi va individual xususiyatlariga moslashtira oladi.

Shu bilan birga, ish tajribasi ortib borishi bilan nazoratga asoslangan, talabchan va hukmron uslublarning ham kuchayishi kuzatiladi. Ayniqsa, yuqori tajriba bosqichida (11 yil va undan yuqori) ushbu uslublarning ustunligi pedagogning kasbiy avtoriteti, mas'uliyati va faoliyatda shakllangan barqaror strategiyalari bilan bog'liqdir. Bunday yondashuv ta'lim jarayonida intizom va tartibni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, biroq ayrim hollarda o'quvchilarning mustaqilligi va tashabbuskorligini cheklash ehtimolini ham yuzaga keltiradi.

Dastlabki bosqichda (1-5 yil) esa kuzatuvchi va passiv uslublarning nisbatan yuqoriroq darajada namoyon bo'lishi yosh o'qituvchilarning kasbiy adaptatsiya jarayonida ekanligini ko'rsatadi. Bu davrda pedagoglarda tajriba yetishmasligi, o'ziga ishonchning to'liq shakllanmaganligi va pedagogik vaziyatlarda ehtiyotkorlik bilan harakat qilish tendensiyasi kuzatiladi. Olingan natijalar pedagogik uslublarning rivojlanishi bosqichma-bosqich xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi: dastlabki bosqichda passivlik ustun bo'lsa, o'rta bosqichda konstruktiv va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar maksimal darajada rivojlanadi, yuqori tajriba bosqichida esa nazorat va direktivlik kuchayadi. Bu esa pedagogik faoliyatni optimallashtirishda har bir bosqich uchun differensial yondashuv zarurligini asoslaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari pedagoglarning pedagogik vaziyatlarga nisbatan qo'llaydigan uslubiy yondashuvlari ularning kasbiy ish tajribasi bilan uzviy bog'liqligini tasdiqladi. Kruskal-Uollis H mezonini asosida olib borilgan statistik tahlil pedagogik uslublarning aksariyatida ish staji bo'yicha ishonchli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa pedagogik faoliyat davomida o'qituvchilarning kasbiy tajribasi ortishi bilan ularning pedagogik qarashlari, boshqaruv strategiyalari hamda o'quvchilar bilan o'zaro munosabat uslublari bosqichma-bosqich transformatsiyaga uchrashini ko'rsatadi.

Aniqlanishicha, 1-5 yil ish stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarda kuzatuvchi, tartibsiz hamda mas'uliyatdan chekinuvchi uslublarning nisbatan yuqoriroq namoyon bo'lishi ularning kasbiy adaptatsiya jarayonida ekanligi, pedagogik tajriba va kasbiy ishonchning hali to'liq shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Aksincha, 6-11 yil ish tajribasiga ega pedagoglarda avtonomiyani qo'llab-quvvatlovchi, jalb qiluvchi, moslashuvchan va yo'naltiruvchi uslublarning ustunligi kasbiy yetuklik, refleksiv fikrlash hamda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning eng optimal bosqichi shakllanganligini ko'rsatdi. 11 yildan ortiq ish tajribasiga ega o'qituvchilarda esa nazoratga asoslangan, talabchan va hukmron uslublarning ustunligi ko'p yillik kasbiy tajriba natijasida shakllangan boshqaruv strategiyalari hamda pedagogik mas'uliyatning kuchayishi bilan tavsiflandi.



Korrelyatsion tahlil natijalari pedagogik uslublar o'zaro mustaqil emasligini, balki yagona tizim sifatida shakllanishini ko'rsatdi. Xususan, avtonomiyani qo'llab-quvvatlash uslubining moslashuvchanlik, jalb qiluvchi va yo'naltiruvchi uslublar bilan kuchli ijobiy bog'liqligi shaxsga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning kompleks xarakterga ega ekanligini tasdiqladi. Shu bilan birga, nazoratga asoslangan uslubning talabchanlik va hukmronlik bilan, tartibsiz uslubning esa mas'uliyatdan chekinuvchi yondashuv bilan kuchli bog'liqligi pedagogik faoliyatda konstruktiv va destruktiv uslublarning ichki tizimli tuzilishga ega ekanligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari pedagogik uslublarning rivojlanishi kasbiy faoliyat bosqichlariga mos ravishda evolyutsion xarakter kasb etishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Mazkur natijalar pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida ish staji xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo'llash, ayniqsa, yosh o'qituvchilarda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish hamda tajribali pedagoglarda nazorat va talabchanlikni demokratik hamkorlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini takomillashtirish, ta'lim sifati va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishning muhim ilmiy-amaliy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Deci, E.L., & Ryan, R.M. (1985). Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. New York: Plenum Press.
2. Deci, E.L., & Ryan, R.M. (2000). The "What" and "Why" of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior. *Psychological Inquiry*, 11(4), 227-268.
3. Hattie, J. (2009). *Visible Learning*. Routledge.
4. Hattie, J. (2023). *Visible Learning: The Sequel*. Routledge.
5. Levin, K., Lippitt, R., & White, R.K. (1939). Patterns of Aggressive Behavior in Experimentally Created Social Climates. *Journal of Social Psychology*, 10(2), 271-299.
6. Кузьмина Н.В. (1990). Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. Москва: Высшая школа.
7. Маркова А.К. (1996). Психология профессионализма. Москва: Международный гуманитарный фонд "Знание".
8. Митина Л.М. (1998). Психология профессионального развития учителя. Москва: Флинта.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.